

ILMIY-AMALIY JURNAL

Impact Factor: 5.394

ISSN 2181-0958

DOI 10.26739/2181-0958

YURISPRUDENSIYA

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ | JURISPRUDENCE



7 JILD, 3

2026

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 3



Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:

SALAEV NODIRBEK
O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
professor, Yuridik fanlar doktori.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

RUSTAMBEKOV ISLAMBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
Yuridik fanlar doktori, professor.

TAHRIRIY HAY'AT A'ZOLARI | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ |

Mas'ul kotib | Ответственный секретарь | Responsible secretary:

DAVRONOV ATOBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi,
PhD yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori.

KARIMOV FARHOD
Siyosiy fanlar doktori, dotsent,
A. Avloniy nomidagi
Malaka oshirish instituti prorektori;

BAZAROVA DILDORA
Toshkent davlat yuridik universiteti

yuridik fanlar doktori, professor;

IMOMOV NURILLO
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi
kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori, professor;

KHAIRIEV NODIRJON
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;

NEMATOV JURABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
ma'muriy va moliyaviy huquq kafedrasida
dotsenti, yuridik fanlar doktori, dotsent;

ISMAILOV SHUKHRATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti mehnat
huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori;

KHABIBULLAEV DAVLATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik
protsessual va xo'jalik protsessual huquqi kafedrasida
mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor;

OCHILOV KHASAN
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent;

IBROKHIMOV JAMSHID
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

GAFUROVA NOZIMAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro
huquq va inson huquqlari kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

NARZIEV OTABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy
xalqaro huquq kafedrasida i.o. professori,
yuridik fanlar doktori;

MUSAEV BEKZOD
Toshkent davlat yuridik universiteti
konstitutsiyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

MURATAEV SERIKBEK
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi;

KAMALOVA DILDORA
Yuridik fanlar doktori, professor;

YUSUPOV SARDORBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti ma'muriy va
moliyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD), yuridik fanlar doktori, dotsent;

KHUJAEVA SHOKHJAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti
intellektual mulk huquqi kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

CHORIEVA DILBAR
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Page Maker | Верстка | Sahifalovchi: Xurshid Mirzaxmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI.....	5
Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
2. ПОДГОТОВКА МЕДИАТОРОВ ПО ТРУДОВЫМ СПОРАМ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ.....	15
Мавлонова Нигина Баходировна	
3. SUDYALAR DAXLSIZLIGI: HUQUQIY TABIATI VA UNI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	30
Zaripov Jo'rabek Sodikovich	
4. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕДИАЦИИ В РАЗРЕШЕНИИ ТРУДОВЫХ СПОРОВ: АНАЛИЗ ЗАТРАТ И ВЫГОД.....	40
Мавлонова Нигина Баходировна	
5. ОСОБЕННОСТИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПРАВА СОБСТВЕННОСТИ НА БУДУЩЕЕ ЖИЛОЕ ПОМЕЩЕНИЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	53
Курбонова Комилабону Рамзбек кизи	
6. OILA HUQUQIDA NIKONLANUVCHI SHAXSLARNING MAJBURIY TIBBIY KO'RIKDAN O'TISHINING HUQUQIY ASOSLARI.....	67
Zaripov Jo'rabek Sodikovich	
7. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ МЕДИАЦИИ В ТРУДОВЫХ СПОРАХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: НАУЧНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ.....	77
Мавлонова Нигина Баходировна	

SUDYALAR DAXLSIZLIGI: HUQUQIY TABIATI VA UNI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.21651757>

Zaripov Jo‘rabek Sodikovich

Buxoro davlat universiteti

Yurisprudensiya ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

jurabekzaripov7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sudyalar daxlsizligi institutining nazariy-huquqiy asoslari, uning sud hokimiyati mustaqilligi va odil sudlovni amalga oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida sudyalar daxlsizligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari hamda ushbu institutni tartibga soluvchi milliy qonunchilik normalari tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan. Sudyalarni jinoiy, ma‘muriy va intizomiy javobgarlikka tortishning protsessual-huquqiy mexanizmlari, sudya daxlsizligi kafolatlarining mazmuni va ularni qo‘llash amaliyoti ilmiy-huquqiy hamda qiyosiy-huquqiy metodlar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, sudyalar mustaqilligini ta‘minlashga oid xalqaro huquqiy standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba milliy qonunchilik bilan qiyoslangan. Tadqiqot yakunida sudyalar daxlsizligi institutining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini yanada mustahkamlash hamda sud tizimiga nisbatan jamoatchilik ishonchini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sud hokimiyati, sudya, sudyalar daxlsizligi, sud mustaqilligi, sudya immuniteti, konstitutsiyaviy kafolatlar, sud-huquq islohotlari, odil sudlov, javobgarlik, huquqiy davlat.

JUDICIAL IMMUNITY: ITS LEGAL NATURE AND THE CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF ITS PROTECTION

Jurabek Sodikovich Zaripov

Bukhara State University Third-year student, Bachelor's Degree Program in Law

Abstract: This article analyzes the theoretical and legal foundations of the institution of judicial immunity, as well as its significance in ensuring judicial independence and the administration of justice. The constitutional and legal framework governing judicial immunity in the Republic of Uzbekistan and the provisions of national legislation regulating this institution are examined through a systematic approach. The procedural legal mechanisms for holding judges criminally, administratively, and disciplinarily liable, the content of judicial immunity guarantees, and their practical application are analyzed using legal and comparative legal research methods. In addition, international legal standards concerning judicial independence and advanced foreign practices are compared with the national legal framework. The study formulates scientific conclusions and practical recommendations aimed at improving the legal mechanisms of judicial immunity, strengthening judicial independence, and enhancing public confidence in the judiciary.

Keywords: judiciary, judge, judicial immunity, judicial independence, judge immunity, constitutional guarantees, judicial and legal reforms, administration of justice, legal liability, rule of law.

НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ СУДЕЙ: ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И КОНСТИТУЦИОННЫЕ ГАРАНТИИ ЕЁ ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Зарипов Журабек Садыкович

Бухарский государственный университет Студент 3 курса направления
«Юриспруденция»

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретико-правовые основы института неприкосновенности судей, а также его значение для обеспечения независимости судебной власти и осуществления правосудия. На основе системного подхода исследованы конституционно-правовые основы неприкосновенности судей в Республике Узбекистан и нормы национального законодательства, регулирующие данный институт. Проанализированы процессуально-правовые механизмы привлечения судей к уголовной, административной и дисциплинарной ответственности, содержание гарантий неприкосновенности судей и практика их применения с использованием юридического и сравнительно-правового методов исследования. Кроме того, международно-правовые стандарты обеспечения независимости судей и передовой зарубежный опыт сопоставлены с национальным законодательством. По результатам исследования сформулированы научные выводы и практические рекомендации, направленные на совершенствование правовых механизмов института неприкосновенности судей, укрепление независимости судебной власти и повышение доверия общества к судебной системе.

Ключевые слова: судебная власть, судья, неприкосновенность судей, независимость судебной власти, иммунитет судьи, конституционные гарантии, судебно-правовые реформы, правосудие, юридическая ответственность, правовое государство.

Kirish

Huquqiy demokratik davlatni shakllantirish va rivojlantirishda sud hokimiyatining mustaqilligi hamda odil sudlovni samarali amalga oshirish muhim konstitutsiyaviy omillardan biri hisoblanadi. Sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i sifatida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligini kafolatlovchi huquqiy mexanizmlarning mavjudligi hamda ularning amalda ta’minlanishi bilan uzviy bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, sudya daxlsizligi instituti sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlovchi asosiy konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlardan biri sifatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, sud hokimiyatining institutsional mustaqilligini mustahkamlash hamda odil

sudlovning samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida sudlarning davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlaridan mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy va institutsional kafolatlarni yaratish, sudyalarning faoliyatiga noqonuniy aralashuvning oldini olish hamda odil sudlovni amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Sudya daxlsizligi sudyaga berilgan shaxsiy imtiyoz sifatida emas, balki sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash va odil sudlovni xolis hamda qonuniy amalga oshirishga xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy-huquqiy kafolat sifatida e'tirof etiladi. Mazkur institut sudyaning o'z vakolatlarini tashqi bosim, noqonuniy ta'sir, tahdid yoki ta'qiblardan xoli ravishda, faqat Konstitutsiya va qonun talablariga muvofiq amalga oshirishini ta'minlaydi. Shu sababli sudya daxlsizligi sud hokimiyati mustaqilligining muhim tarkibiy elementi hamda odil sudlovni amalga oshirishning zarur huquqiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Sud hokimiyatining asosiy tamoyillaridan biri sudyalarning daxlsizligi tamoyilidir.[1]. Ushbu tamoyil sudyalarning huquqiy maqomi, ularning faoliyatini himoya qiluvchi huquqiy kafolatlar hamda daxlsizlik institutining amaliy ta'minoti bilan bevosita bog'liq. Sudya daxlsizligi alohida shaxsga berilgan imtiyoz emas, balki sudyaning o'z vakolatlarini har qanday noqonuniy ta'sir va bosimlardan xoli holda amalga oshirishini ta'minlovchi konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatdir. Mazkur institut sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashning muhim huquqiy vositalaridan biri sifatida odil sudlovning xolisligi, mustaqilligi va qonuniyligini kafolatlashga xizmat qiladi.

Sudya daxlsizligi sudyaning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq vakolatlarini mustaqil va xolis ravishda bajarishi uchun zarur bo'lgan konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar majmuini ifodalaydi. Ushbu institut sudyaning kasbiy faoliyatiga har qanday noqonuniy ta'sir, bosim, ta'qib yoki aralashuvni cheklash orqali uning qarorlari faqat Konstitutsiya, qonun talablari hamda ichki e'tiqodiga asoslanib qabul qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu maqsadda sudyalarga nisbatan protsessual immunitet, maxsus huquqiy kafolatlar va javobgarlikka tortishning alohida huquqiy tartibi belgilangan bo'lib, ular sud hokimiyati mustaqilligining amaliy ta'minotini kafolatlovchi asosiy mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Sudyalarning daxlsizligi. [2]. Sudyalarning mustaqildirlar, faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. [3]. Mazkur huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni normalarida o'z ifodasini topgan. Xususan, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda sudyalarning mustaqilligi, ularning faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunishi, sudyalarning faoliyatiga har qanday shakldagi aralashuvga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek, ularni jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlikka tortishning alohida huquqiy tartibi belgilangan. Mazkur qoidalar sudya daxlsizligi institutining mazmunini belgilovchi asosiy konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar sifatida sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sudyaning daxlsizligiga katta e'tibor berilishi faqat yuridik soha vakillarini o'ziga jalb qilib qolmasdan, balki bu keng ommaning ham munozara predmeti hisoblanadi. Aynan sudyaning daxlsizligi tamoyili odil sudlovning asosini tashkil etadigan Konstitutsiyaviy tamoyillar ichida eng muhimi hisoblanadi. [4].

Sud daxlsizligi ularning odil sudlovni amalga oshirishda huquqlari cheklanishining oldini olish, ularga bu vazifani bajarishda har qanday aralashuvga chek qo'yishda muhim o'rin tutadi. Ushbu qoida xalqaro hujjatlar hisoblanuvchi «Sud organlarining asosiy tamoyillari to'g'risida»gi xalqaro Konvensiyaga ham belgilangan.[5].

Sudyalar daxlsizligining huquqiy mazmuni bir necha tarkibiy elementlardan iborat. Jumladan: sudyaning shaxsiy daxlsizligi; sudyaning turar joyi va xizmat xonasining daxlsizligi; xizmat hujjatlari va yozishmalarining himoyalanganligi; sudya faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashuvning taqiqlanishi hamda sudyani javobgarlikka tortishning maxsus protsessual tartibi.

Mazkur kafolatlar sudyaning shaxsiy manfaatlarini emas, balki sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi bilan boshqa davlat xizmatchilarining huquqiy maqomidan farq qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida sudyalar daxlsizligini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O'RQ-703-son "Sudlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, odil sudlov sifatini oshirish hamda fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini kuchaytirish asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 84-, 85- va 86-maqsadlarida ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, unda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish, shuningdek sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlov samaradorligini oshirish vazifalari nazarda tutilgan.[6].

Sudyalar daxlsizligini ta'minlash faqat qonunchilikda tegishli normalarni belgilash bilangina cheklanmaydi. Uning samaradorligi sudyalar faoliyatini huquqiy, tashkiliy, moddiy va ijtimoiy jihatdan kafolatlovchi kompleks mexanizmlar mavjudligiga bog'liq. Xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik tahlili sudya daxlsizligining asosiy kafolatlarini quyidagi guruhlariga ajratish imkonini beradi:

Birinchidan, *huquqiy kafolatlar*. Sudyaning faqat qonunga bo'ysunishi, unga nisbatan noqonuniy ta'sir o'tkazishning taqiqlanishi hamda sudyani javobgarlikka tortishning maxsus tartibi ana shunday kafolatlarning asosini tashkil etadi

Ikkinchidan, *institutsional kafolatlar*. Sudyalarni tanlash, tayinlash, lavozimidan ozod etish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarining mustaqil organlar

ishtirokida amalga oshirilishi sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar. Sudyalarning munosib moddiy ta'minoti, ijtimoiy himoyasi va xavfsizligini ta'minlash ularning har qanday tashqi bosimdan holi faoliyat yuritishiga imkon yaratadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sudyalarning moddiy mustaqilligi sud hokimiyati mustaqilligining muhim omillaridan biridir.

Shunday qilib, sudyalarning daxlsizligi instituti shaxsiy imtiyoz emas, balki odil sudlovni mustaqil amalga oshirishni ta'minlaydigan konstitutsiyaviy kafolat sifatida namoyon bo'ladi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi sudyalarning daxlsizligi bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, bu holat sudyalarni qonun oldida mutlaqo javobgarlikdan ozod etishni anglatmaydi. Huquqiy demokratik davlatda barcha shaxslar singari sudyalarning ham qonun talablariga rioya etishlari shart. Shu bilan birga, sudyalarning javobgarligi odil sudlovni amalga oshirishga noqonuniy ta'sir ko'rsatishning oldini olish maqsadida alohida huquqiy tartib asosida amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv sud hokimiyatining mustaqilligi va qonun ustuvorligi tamoyillari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida sud hokimiyatining mustaqilligi mustahkamlangan bo'lib, sudyalarning faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunishi belgilangan. Xususan, Sudyalarning mustaqildirlar, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. [7]

Sudyalarning yuridik javobgarlikning umumiy turlari – *intizomiy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy va jinoiy javobgarlik* subyekti bo'lishlari mumkin. Biroq ularni javobgarlikka tortishning protsessual tartibi oddiy fuqarolarnikidan farq qiladi. Bunday alohida tartib sudyaning shaxsiy manfaatlarini himoya qilish uchun emas, balki sud faoliyatiga noqonuniy bosim o'tkazilishining oldini olish hamda odil sudlovning mustaqilligini ta'minlash maqsadida joriy etilgan.[8].

Sudyalarning daxlsizligi sud hokimiyati mustaqilligining ajralmas elementidir. Ammo ushbu daxlsizlikni ta'minlashda amaliy muammolar yuzaga kelishi mumkin. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish doirasida sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ushbu institutni amaliyotda qo'llash jarayonida ayrim huquqiy va tashkiliy muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolarni aniqlash va bartaraf etish sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash hamda odil sudlov samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda uchrayotgan asosiy muammolardan biri sudyalarning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishga urinish holatlarining uchrayotganidir. Ayrim hollarda davlat organlari, mansabdor shaxslar, ommaviy axborot vositalari yoki jamoatchilik tomonidan sud muhokamasi yakunlanmasdan turib sud ishiga baho berilishi yoki sud qaroriga nisbatan bosim o'tkazilishi sudyaning ichki ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlar sud hokimiyatining mustaqilligi tamoyiliga zid bo'lib, odil sudlovning xolis amalga oshirilishiga xavf tug'diradi. Yana bir dolzarb muammo sudya

daxlsizligi bilan javobgarlik muqarrarlari tamoyili o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasidir. Bir tomondan, sudya har qanday noqonuniy bosim va ta'qiblardan himoyalangan bo'lishi zarur, ikkinchi tomondan esa u sodir etgan huquqbuzarlik uchun qonun oldida javobgar bo'lishi kerak. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur ikki tamoyilning noto'g'ri talqin qilinishi ayrim hollarda sudya immunitetini mutlaq daxlsizlik sifatida qabul qilish yoki aksincha, sudyalarga nisbatan asossiz javobgarlik choralari qo'llashga olib kelishi mumkin. Shu sababli sudyalarni javobgarlikka tortishning protsessual asoslari yanada aniq va shaffof bo'lishi lozim. Sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish amaliyotida ham ayrim muammolar kuzatiladi. Xususan, intizomiy javobgarlik asoslarini baholash mezonlarining ayrim hollarda umumiy xarakterga egaligi turlicha talqinlarga sabab bo'lishi mumkin. Natijada bir xil mazmundagi xatti-harakatlarga nisbatan turli yondashuvlar qo'llanishi ehtimoli yuzaga keladi. Bu esa sudyalar faoliyatini baholashda yagona amaliyotni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, sudyalarning kasbiy mustaqilligini ta'minlash faqat huquqiy kafolatlar bilan emas, balki ularning ijtimoiy himoyasi, moddiy ta'minoti va xavfsizlik darajasi bilan ham bevosita bog'liq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sudyalar uchun munosib mehnat sharoitlari, ijtimoiy kafolatlar va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining yaratilishi ularning har qanday tashqi bosimga nisbatan barqarorligini oshiradi hamda korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi.[9; 10].

Sudyalar daxlsizligini ta'minlashning amaliy samaradorligini oshirish uchun bir qator tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Jumladan, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish mezonlarini aniq belgilash, sud hokimiyatiga noqonuniy aralashuv uchun javobgarlik choralari kuchaytirish, sudyalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, sud tizimida axborot xavfsizligi standartlarini takomillashtirish hamda sudyalarning kasbiy etikasi va malakasini muntazam oshirib borish zarur. Mazkur chora-tadbirlar sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish va huquqiy davlat tamoyillarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil

Sud hokimiyatining mustaqilligi va sudyalar daxlsizligini ta'minlash demokratik davlatlarning huquqiy tizimida muhim o'rin egallaydi. Har bir davlat tarixiy taraqqiyoti, davlat boshqaruvi modeli va huquqiy an'alaridan kelib chiqib sudyalar daxlsizligini kafolatlashning o'ziga xos mexanizmlarini shakllantirgan. Xorijiy tajribani o'rganish milliy qonunchilikni takomillashtirish va sud-huquq islohotlarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xususan, AQSHda sud hokimiyatining mustaqilligi mamlakat Konstitutsiyasining III moddasida mustahkamlangan bo'lib, federal sudyalar umrbod (good behaviour) lavozimida faoliyat yuritish huquqiga ega. Ularni faqat Konstitutsiyada belgilangan impeachment tartibi orqali lavozimidan ozod etish mumkin. Bu mexanizm ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatning sud faoliyatiga asossiz aralashuvining oldini olishga xizmat qiladi. [11]. AQSHda sudyalar o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida qabul qilgan qarorlari uchun mutlaq sud immuniteti bilan himoyalangan. Mazkur tamoyil sudyani

fuqarolik-huquqiy da'volardan himoya qiladi va ularni mustaqil qaror qabul qilishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, sudya jinoyat sodir etgan yoki etik qoidalarni buzgan taqdirda maxsus intizomiy organlar hamda Kongress tomonidan javobgarlikka tortilishi mumkin. [12]. Fransiya tajribasi misolida: Fransiyada sudyalari mustaqilligi 1958-yilgi Konstitutsiya hamda Sud magistraturasi oliy kengashi (Conseil Supérieur de la Magistrature) faoliyati orqali ta'minlanadi. [13]. Mazkur Kengash sudyalarni tayinlash, lavozimga ko'tarish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarida muhim vakolatlarga ega.

Fransiya tajribasida sudyalarni siyosiy bosimdan himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Intizomiy javobgarlik faqat qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Sud qarorining mazmuni sudyani javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi, agar unda qasddan qonunbuzilish yoki vakolatni suiiste'mol qilish holatlari aniqlanmagan bo'lsa. [14].

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda sudyalari daxlsizligini ta'minlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: sud hokimiyatining boshqa hokimiyat tarmoqlaridan institutsional mustaqilligi; sudyalarni tayinlash va intizomiy javobgarlikka tortishda mustaqil organlar ishtiroki; sud qarorlari uchun fuqarolik javobgarligidan himoya qiluvchi sud immunitetining mavjudligi; murakkab va shaffof protsessual tartib hamda sudyalari faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashuv uchun qat'iy javobgarlikning belgilanishi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida sudyalari daxlsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish holati milliy qonunchilik va xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash, sudyalarning daxlsizligini ta'minlash hamda odil sudlov samaradorligini oshirish bo'yicha so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, Konstitutsiyaning yangi tahririda sud hokimiyatining mustaqilligi yanada mustahkamlandi, *"Sudlar to'g'risida"gi Qonun* takomillashtirildi, Sudyalari oliy kengashining vakolatlari kengaytirildi hamda sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning ochiqqligi oshirildi.

Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatdiki, sudya daxlsizligi bilan javobgarlik muqarrarligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Xalqaro amaliyotda sudya immuniteti shaxsiy imtiyoz sifatida emas, balki odil sudlovning mustaqilligini ta'minlovchi huquqiy kafolat sifatida talqin qilinadi.

O'zbekistonda sud-huquq islohotlari natijasida sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash borasida sezilarli ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, sud faoliyatiga noqonuniy aralashuvning oldini olish, sudyalarning axborot xavfsizligini ta'minlash, raqamli makonda sudyalarga nisbatan bosim o'tkazish holatlarining oldini olish hamda sudyalari faoliyatini baholashning shaffof mezonlarini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Shuningdek, sudyalari daxlsizligini ta'minlashning samaradorligi nafaqat huquqiy kafolatlarga, balki sudyalarning ijtimoiy himoyasi, moddiy ta'minoti, kasbiy

malakasi va etik standartlarga rioya etish darajasiga ham bevosita bog'liq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sudyalarning yuqori darajadagi moddiy va ijtimoiy ta'minoti korrupsion xavflarni kamaytiradi, ularning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda sud tizimiga nisbatan jamoatchilik ishonchini oshiradi.

O'zbekistonda sudyalar daxlsizligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun, birinchidan, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish mezonlarini qonunchilik darajasida aniq belgilash, ikkinchidan, Sudyalar oliy kengashining institutsional mustaqilligini yanada kuchaytirish, uchinchidan, sudyalar faoliyatiga noqonuniy aralashuv uchun javobgarlik choralari kuchaytirish, to'rtinchidan, sudyalar uchun zamonaviy axborot va kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, sudyalar malakasini oshirish tizimida xalqaro tajribani keng joriy etish, etik standartlar bo'yicha muntazam o'quv dasturlarini tashkil etish hamda sud qarorlarining ochiqligini oshirish orqali sud tizimiga nisbatan fuqarolarning ishonchini yanada mustahkamlash mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari sudyalar daxlsizligi sud hokimiyati mustaqilligining ajralmas tarkibiy qismi hamda odil sudlovni samarali amalga oshirishning asosiy huquqiy kafolatlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Sudya daxlsizligi institutining mazmun-mohiyati shundan iboratki, u sudyaga shaxsiy imtiyoz yaratishga emas, balki sud qarorlarining faqat qonun va ichki ishonch asosida qabul qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sudyalar daxlsizligini huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida sudyalar daxlsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari xalqaro standartlarga mos ravishda shakllanayotganligi aniqlandi. Biroq sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning izchil davom ettirilishi, sud hokimiyatining institutsional mustaqilligini yanada mustahkamlash hamda sudyalar faoliyatiga noqonuniy aralashuvning oldini olish bo'yicha qo'shimcha huquqiy mexanizmlarni joriy etish zarurligi asoslandi.

Sudyalar daxlsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Birinchidan, *"Sudlar to'g'risida"gi Qonunda sudya daxlsizligining kafolatlari va ularni cheklash mumkin bo'lgan hollarning huquqiy mezonlarini yanada aniq belgilash* zarur. Bu amaliyotda turlicha talqinlarning oldini olib, qonunlarni bir xilda qo'llashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, *sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortishning yagona va shaffof mezonlarini ishlab chiqish*, intizomiy ishlarni ko'rib chiqish tartibini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda mazkur jarayonning ochiqligini oshirish lozim. Bu sudya mustaqilligini saqlagan holda javobgarlik muqarrarligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, *Sudyalar oliy kengashining institutsional mustaqilligini yanada kuchaytirish*, uning sudyalarni tanlash, baholash va lavozimga tavsiya etishdagi vakolatlarini xalqaro tajriba asosida rivojlantirish zarur. Mazkur yondashuv sud hokimiyatining boshqa hokimiyat tarmoqlaridan mustaqilligini mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, *sudyalarning axborot va kiberxavfsizligini ta'minlash bo'yicha*

alohida tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda sudyalarga nisbatan ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa axborot platformalari orqali noqonuniy bosim o'tkazilishining oldini olish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sudyalar daxlsizligi institutining samaradorligi faqat qonunchilik normalarining mavjudligi bilan emas, balki ularning amaliyotda izchil qo'llanilishi, sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligi, sudyalarning kasbiy mas'uliyati va jamiyatning sud tizimiga bo'lgan ishonchi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari dasrligi M.H. Rustamboyev, Y.N.Nikiforova. – Toshkent “Turon-iqbol” 2007. 253-, 254-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 136-modda. <http://lex.uz/docs/-6445145>
3. Sudlar to'g'risidagi Qonun. <http://lex.uz/docs/-5534923>
4. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi. <http://lex.uz/docs/-8050769>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi PF–6034-son Farmoni. <http://lex.uz/uz/docs/-4910826>
6. Basic Principles on the Independence of the Judiciary. United Nations, 1985.
7. Bangalore Principles of Judicial Conduct. UNODC, 2002.
8. U.S. Constitution. Article III. Washington, D.C., 1787.
9. Shaman J.M., Lubet S., Alfini J.J. *Judicial Conduct and Ethics*. 5th ed. New York: LexisNexis, 2013.
10. Constitution of the French Republic. Paris, 1958.
11. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). *Report on the Independence of the Judicial System: Part I – The Independence of Judges*. Strasbourg, 2010.

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000